

J.K. ROULING ASARLARIDA OKKAZIONAL TIL BIRLIKLARINING STRUKTURAL-SEMANTIK JIHATLARI

Primqulova Oybahor Abdisalom qizi

Xonobod shahar 2-umumiy o`rta ta`lim maktabi o`qituvchisi

Annotatsiya. *ushbu maqolada mashhur ingliz adibi J.K.Rowling qalamiga mansub asarlarda qo`llanilgan okkazional leksikaning struktural ya`ni, fonologik, morfologik, sintaktik, pragmatik hamda semantik jihatlari yoritib beriladi.*

Kalit so`zlar: *okkazionalizm, okkazional leksika, morfologik, sintaktik, semantik, takror usuli, kompozitsiya, affiksatsiya usuli.*

Abstract. *In this article structural, especially, phonologic, morphologic, syntactic, pragmatic and semantic features of nonce words which have been used in the novels of one of the most famous English writers, J.K.Rowling are clarified.*

Key words: *occasionalism, occasional lexica, morphologic, syntactic, semantic, composition, affixation.*

Okkazionalizmlarni baddiy asar matnlarida tahlil etish tobora dolzarb mavzulardan biri bo`lib bormoqda. Shu o`rinda okkazional leksik birlik o`zi nima degan savol tug`iladi. O`zbek tilining izohli lug`atida quyidagicha ta`rif beriladi:

“Umumiste`molga muvofiq, to`g`ri kelmaydigan, individual tarzda ma`noga ega bo`lgan til birligi”<sup>10</sup>. Yoki A.Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati” da quyidagi ta`rifni uchratishimiz mumkin: “Mahsuldor bo`lmish model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o`zida qo`llaniladigan so`z, individual-uslubiy neologizm”<sup>11</sup>. “Okkazional so`zlar umumxalq tili va adabiy til lug`atida mavjud bo`lmagan, nutq jarayonida muayyan shaxs tomonidan aynan shu vaziyat, mazmun ehtiyojidan kelib chiqib yasalgan va ishlatilgan g`ayrioddiy -maromsiz yasalmadir”<sup>12</sup>. Asarlardagi yozuvchlar tomonidan “ixtiro qilingan” so`z va iboralarni tahlil qilish ularni tushunishda juda muhim ahamiyatga ega. Har bir yozuvchining adabiy maydonda o`ziga yarasha o`rni bo`ladi. Shu o`rinda gap okkazional til birliklari haqida ketar ekan, bunday so`zlardan foydalanish hamma yozuvchining ham qo`lidan kelavermasligini alohida ta`kidlamaslikning iloji yo`q. Ana shunday iste`dodlardan biri, shubhasiz, J.K.Roulingdir. Ushbu adiba qalamiga mansub Garri Potter turkumidagi asarlarni bilmaydigan inson yer yuzida deyarli topilmasa kerak. Ushbu asar o`zining sehrli dunyosi bilan katta-yu kichikning ko`nglidan birdek joy olgan bo`lsa, asardagi o`zgacha, umumiy leksikaga

¹⁰ O`zbek tilining izohli lug`ati. -Toshkent 2005. -B.103.

¹¹ Hojiyev.A. “Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati”. Toshkent – 1985. B 74.

¹² Toshaliyeva S. O`zbek tilida okkazional so`z yasalishi. Filol.fanlari nomzodi....dis. -T., 1990

tegishli bo'lmagan, boshqa asarlarda uchramaydigan til birliklari bilan tilshunos-tadqiqotchilarning ham e'tiborida.

Asardagi yozuvchining ijod mahsuli sifatida yaratilgan leksik birliklar nihoyatda bisyor. J.K. Rouling o'z asarida yaratgan okkazionalizlarni so'z turkumlari doirasida tahlil qiladigan bo'lsak, ularning ko'pchilik qismi ot so'z turkumiga mansub ekanligini ko'rishimiz mumkin. Quyida ulardan bir qanchasini ko'rib chiqamiz.

“Garri Potter va hikmatlar toshi”(Harry Potter and the Philosopher's stone) ning birinchi bo'limi bo'lgan “Omon qolgan bola”(The boy who lived)da quyidagi okkazionalizlarga duch kelamiz:

1. Privet Drive – aslida privet va drive so'zlari ingliz tilida mavjud umumiy leksikaga oid so'zlar bo'lsada, ko'cha nomi sifatida ularning qo'shilmasining ishlatilishi yangilik bo'yog'ini beradi. Ushbu so'zni so'z turkumlari doirasida tahlil etadigan bo'lsak, u sifat va otning kombinatsiyasidan yasalgan bo'lib, ularni birgalikda qo'llanilishi ot so'z turkumidagi bitta so'zga, ya'ni ko'cha nomi bo'lgan atoqli otga aylantiradi

2. Grunnings – janob Dursley ishlaydigan kompaniyaning nomi. Ushbu so'z ham yozuvchi tomonidan o'ylab topilgan so'z bo'lib, morfologik jihatdan ot so'z turkumiga kiradi.

3. Undursleyish so'zi mutlaqo okkazional so'z hisoblanadi. Ushbu so'zning yasashiga diqqat qaratadigan bo'lsak un- old qo'shimchasiga Dursley familiyasi hamda -ish suffiksi qo'shish yordamida yasalgan va asarda sifat so'z turkumi sifatida inson xarakterini ifodalash maqsadida ishlatilgan. Ya'ni, dursey oilasining xususiyatlari umuman yo'q ma'nosida qo'llanilgan. Va ushbu so'z soda yasama sifatga misol bo'la oladi.

4. Owl-free morning- garchand ushbu birikmadagi so'zlar alohida-alohida olib qaralganda haqiqiy mavjud bo'lgan so'zlar bo'lsa-da, ularni birgalikda qo'llash uni okkazional leksik birlikka aylantiradi. U gapda sifat va ot so'z turkumi vazifasini bajargan.

5. Muggle – ushbu so'z J.K.Rowling tomonidan o'ylab topilgan yangi so'z hisoblanadi. Muggle so'zi asarda sehriga aloqador bo'lmagan odamlarga nisbatan ishlatilgan. Asarda asosan sifat va ot so'z turkumi tariqasida kelgan.

“Harry Potter and the sorcerer's stone” (Garri Potter va hikmatlar toshi)dagi keying bo'lim, ya'ni “The vanishing glass”(Yo'qolgan shisha) da ham shu kabi ot so'z turkumidagi so'z va iboralar ko'plab uchraydi. Masalan, pig in a wig- (yasama sochli cho'chqa) iborasini keltirib o'tishim mumkin. Bu ibora asarda Garri Potter tomonidan Dudleyning ko'rinishini ta'riflash maqsadida qo'llanilgan. Yuqoridagi iboradagi alohida so'zlar okkazional leksikaga taaluqli bo'lmasa-da, ularni birgalikda qo'llash yangilik bo'yog'ini beradi. Popkin so'zi ham aynan Garri Potter asari ichida qo'llanilgan

okkazional soʻz boʻlib, u Petunia xola tomonidan Dudleyga nisbatan ishlatiladi. Yoki ushbu boʻlimda Petunia xola tomonidan dudleyga nisbatan ishlatilgan va oʻzining koʻngliboʻsh ona ekanligini koʻrsatib turadigan Dinky Duddydums laqabi ham asardagi ot soʻz turkumi boʻlib kelgan alohida okkazionalizmlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. -Toshkent 2005. -B.103.
2. Hojiyev.A. “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati”. Toshkent – 1985. B 74.
3. Toshaliyeva S. Oʻzbek tilida okkazional soʻz yasalishi. Filol.fanlari nomzodi.... dis. -T., 1990
4. J.K. Rowling “Harry Potter and sorcerer’s stone”. 2007